



**O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA RESPUBLIKASI:
TA'LIM VA MADANIYAT**

Muxlisa Tursunova Jasurbekovna

Madaniyatshunoslik yo'nalishi O'zbekiston
davlat san'at madaniyat instituti magistranti

Annotatsiyasi: O'zbekiston va Janubiy koreya madaniy aloqalari qadimdan mavjud bo'lgan bunga yaqqol misol Buyuk ipak yo'li orqali ikki davlat o'rtasida o'zaro aloqalar mavjud bo'lgan. Bugungi kunda O'zbekiston va Janubiy koreya o'rtasida masofalar juda uzoq bo'lsada mustahkam aloqalar o'rnatilgan. Mazkur davlatlar o'rtasidagi munosabtlar 1992- yilda o'rnatilgan bo'lib, qariyb 32 yillik tarixga ega. Ushbu maqolada davlatlarimiz o'rtasidagi aloqalarni o'rnatilish tarixi, talim va madaniyat kabi sohalardagi aloqalari keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar; O'zbekiston va Koreya hamkorligi, Madaniy aloqalar, Ta'lim sohasidagi hamkorlik, Madaniyat va an'analar ,Koreya ta'lim markazlari, O'zbek-koreys ta'lim loyihalari, Koreya madaniyati O'zbekistonda.

Аннотация: Культурные связи между Узбекистаном и Южной Кореей существуют уже давно. Сегодня между Узбекистаном и Южной Кореей установлены прочные отношения, хотя расстояния очень большие. Отношения между этими странами были установлены в 1992 году и имеют историю, насчитывающую почти 32



года. В данной статье широко освещена история установления связей между нашими странами, отношения в таких сферах, как образование и культура.

Ключевые слова; Сотрудничество Узбекистана и Кореи, Культурные связи, Сотрудничество в сфере образования, Культура и традиции, Корейские образовательные центры, Узбекско-корейские образовательные проекты, Корейская культура в Узбекистане.

Abstract: Cultural ties between Uzbekistan and South Korea have existed for a long time. Today, strong relations have been established between Uzbekistan and South Korea, although the distances are very large. Relations between these countries were established in 1992 and have a history of almost 32 years. This article widely covers the history of establishing ties between our countries, relations in such areas as education and culture.

Key words; Cooperation between Uzbekistan and Korea, Cultural relations, Cooperation in the field of education, Culture and traditions, Korean educational centers, Uzbek-Korean educational projects, Korean culture in Uzbekistan.

KIRISH

O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi hamkorlik 1992-yil 29-yanvarda diplomatik aloqalar o'rnatilishi bilan boshlandi. Bu ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar o'tgan yillar davomida do'stlik, tenglik va o'zaro manfaatdorlikka asoslangan tarzda rivojlanib kelmoqda. Quyida 1992-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda erishilgan yutuqlar va hamkorlik sohalari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Diplomatik aloqalarning mustahkamlanishi; 1992-yilda diplomatik aloqalarning o'rnatilishi bilan Toshkent va Seul shaharlari o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar boshlangan. Shu davrda ikki mamlakatning elchixonalari ochildi va birinchi davlat



tashriflari amalga oshirildi. O'zbekiston Koreya Respublikasining Markaziy Osiyodagi asosiy hamkori sifatida tanildi.

1999-yilda Janubiy Koreya O'zbekistonda birinchi texnologik loyihalarni amalga oshira boshladi. 2006-yilda ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar strategik hamkorlik darajasiga ko'tarildi. 2008-yilda Toshkentda Koreya universitetlari va texnologik markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish ishlari boshlandi. O'zbekiston Janubiy Koreyadan yirik investitsiyalarni jalb qilib, avtomobilsozlik, energetika va axborot texnologiyalari sohalarida bir qator loyihalarni amalga oshirdi. Koreya hukumati tomonidan ta'lim va madaniyatni rivojlantirish uchun grantlar ajratildi. 2021-yilda O'zbekiston va Koreya strategik sheriklikni yanada kengaytirish uchun qo'shma rejalar ishlab chiqdi. 2023-yilda Janubiy Koreya Prezidenti Yun Sok Yolning davlat tashrifi chog'ida madaniyat, ta'lim va sport sohalarida yangi hamkorlik loyihalari bo'yicha kelishuvlarga erishildi. 2024-yilda Toshkentda Koreya san'at uyi qurilishi yakunlandi, bu esa madaniy almashinuvning ramziga aylandi. Madaniy aloqalar borasida gap ketganda dastlab 1995-yilda Toshkentda Koreya Madaniyat Markazi tashkil etildi. Ushbu markaz koreys madaniyatini o'zbek xalqi bilan yaqinroq tanishtirish va o'zaro madaniy almashinuvni kuchaytirish maqsadida faoliyat yuritadi. 1997-yilda Janubiy Koreyada "O'zbekiston madaniy kunlari" tashkil qilindi, bu orqali koreys xalqi o'zbek madaniyati, san'ati va qadriyatlari bilan tanishdi.

2000-yillarning boshlarida O'zbekistonda koreys tili va madaniyatini o'rgatuvchi o'quv markazlari tashkil etila boshlandi. 2001-2010 yillar: Madaniy va san'at sohasidagi hamkorlikning kuchayishi natijasida madaniy almashinuv yangi bosqichga chiqdi: 2004-yilda Toshkent va Seul shaharlari o'rtasida madaniy hamkorlik memorandumi imzolandi. 2006-yilda O'zbekistonda Koreya Respublikasi tomonidan tashkil etilgan birinchi xalqaro musiqa festivali bo'lib o'tdi. O'zbekistonning turli viloyatlarida koreys diasporasining an'anaviy bayramlari va tadbirlari muntazam o'tkazila boshlandi.



Koreys madaniyati haqida keng ma'lumot beradigan ko'rgazmalar va festival tadbirlari muntazam tashkil qilindi. 2014-yilda Toshkentda Koreya san'at va madaniyat haftaligi tashkil qilindi. Ushbu tadbir xalqaro ko'lamda o'tkazilib, ikkala davlatning san'at sohasidagi hamkorligini mustahkamladi. Talim sohasida munosabatlar, 2008-yilda O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida ta'lim hamkorligi to'g'risida birinchi memorandum imzolandi. Bu memorandum asosida ikki mamlakatning oliy o'quv yurtlari o'rtasida almashinuv dasturlari yo'lga qo'yildi. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida koreys tili bo'limi faoliyatini kengaytirdi. 2014-yilda Toshkentda Janubiy Koreyaning nufuzli oliy ta'lim muassasasi – Inha universitetining filiali ochildi. Ushbu universitetda axborot texnologiyalari va injiniring sohalarida mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. 2015-yilda Seulda O'zbekiston ta'lim kunlari tashkil qilindi, bu esa ikki mamlakat ta'lim tizimlari o'rtasidagi o'zaro tajriba almashinuviga zamin yaratdi.

2017-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida koreys madaniyati markazi tashkil etilib, koreys tili o'qituvchilarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi. Koreya texnik hamkorlik agentligi (KOICA) tomonidan o'zbek talabalari uchun zamonaviy o'quv markazlari tashkil qilindi. 2021-yilda O'zbekiston va Janubiy Koreya hukumatlari ta'lim va ilm-fan sohasida strategik hamkorlikni kengaytirish uchun yangi memorandum imzoladi. 2023-yilda Toshkentda koreys tili va madaniyati bo'yicha maxsus o'quv markazi ochildi. Koreya universitetlari O'zbekistondan qabul qilinadigan talabalar uchun maxsus stipendiya dasturlarini kengaytirdi. Ulardan biri bu GKS stipendiyasi bu stipendiya talabalarga juda kata imkoniyatlar beradi. Bu haqida quyida aytib o'taman. Janubiy Koreyaning yetakchi oliy o'quv yurtlari bilan qo'shma ilmiy tadqiqotlar olib borish yo'lga qo'yildi. Almashinuv dasturlari orqali har yili yuzlab o'zbek talabasi Koreya universitetlarida

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Janubiy Koreya universitetlari o'rtasida ilmiy tadqiqotlar olib borish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yilgan.



Shu bilan birga, Janubiy Koreyaning 45 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Poytaxtimizda Koreya Respublikasining to'rtta oliy o'quv yurtining filiallari ochildi. Ta'lim sohasidagi hamkorlik ham kengaymoqda. Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari Koreya Respublikasining 30 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Koreys tili va madaniyati markazlari bir qancha ta'lim muassasalari ochilgan. Bu boradagi hamkorlik haqida gapirganda, 2014-yilda Toshkent shahrida Inha universiteti ochilganini alohida ta'kidlash joiz. Ushbu oliy ta'lim muassasasi xalqaro standartlar darajasida yuqori malakali IT-mutaxassislarni tayyorlashga munosib hissa qo'shayotgan birinchi xorijiy ta'lim muassasasidir. Bugungi kunda universitetda axborot texnologiyalari, muhandislik va logistika yo'nalishlarida 1078 nafar talaba tahsil olmoqda.[8]Oliy ta'lim tizimidagi ikki davlat o'rtasidagi o'zaro xamkorlik yildan yilga kengayib bormoqda.

Mamlakatimizda Koreys diasporasi ishtirokida bir nechta loyihalar amalga oshirilib, O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlari uchun grantlar ajratilgan. Almashinuv dasturlari orqali har yili yuzlab o'zbek talabasi Koreya universitetlarida grant asosida ta'lim oladi.

“Smart Education” loyihasi 2020-yildan boshlab Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda O'zbekistonda raqamli ta'limni rivojlantirish uchun “Smart Education” loyihasi amalga oshirilmoqda. Ushbu loyiha doirasida O'zbekiston maktablari va universitetlari uchun zamonaviy o'quv texnologiyalari joriy etildi. Elektron darsliklar, onlayn o'quv platformalari va interaktiv o'quv materiallari yaratilgan. O'zbekiston o'qituvchilari Koreyada malaka oshirish dasturlarida ishtirok etmoqda. Janubiy Koreya O'zbekiston talabalari uchun ko'plab stipendiya va grant dasturlarini taqdim etadi:

Xalqaro Hamkorlik bo'yicha Koreya Agentligi (KOICA) yo'nalishidagi hamkorlik doirasida ham ikki davlat o'rtasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston KOICA bilan texnik hamkorlikni beg'araz asbob-uskunalar taqdim etish, mutaxassislar va xodimlarni o'qitish, ekspertlar va ko'ngillilarni O'zbekistonga



yuborish yo'nalishlarida amalga oshirmoqda. Ushbu tashkilotning texnik ko'magida 2019-yilda sog'liqni saqlash sohasida 13 million AQSh dollariga teng ikkita grant loyihasi yakunlandi va Koreya kompaniyalari ishtirokida 29,6 million dollarlik oltita loyiha amalga oshirilmoqda. 2020-2022 yillarda amalga oshirish uchun qiymati 72,2 million dollarlik yana o'nta loyiha ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, Koreya Yeksport-import banki bilan hamkorlikda O'zbekistonga 2 milliard dollarlik resurslar jalb qilingan.[8]

Har yili Global Korea Scholarship (GKS) dasturi orqali o'zbek talabalariga Koreya universitetlarida o'qish imkoniyati beriladi. KOICA grantlari texnologik va qishloq xo'jaligi sohalarida ta'lim olishga ajratilmoqda. Bundan tashqari o'zbek madaniyati ha Koreyada iliq qarshi olingan, O'zbekiston madaniyat kunlari: Har yili Janubiy Koreyada O'zbekiston madaniyat kunlari o'tkaziladi. Ushbu tadbirlarda o'zbek xalqining milliy urf-odatlar, san'ati, milliy kuy-qo'shiqlari va raqslari namoyish etiladi. Ayniqsa, o'zbek milliy cholg'ularida ijro etilgan kuylar va milliy taomlar katta qiziqish uyg'otadi.

Milliy raqs va musiqa ansambllari: O'zbekiston milliy raqs va musiqa ansambllari Koreyada gastrol safarlarida bo'lib, o'zbek san'ati haqida keng tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Masalan, "Lazgi" raqsi, "Qo'qon rubobi" va boshqa xalq ijodiyoti namunalari koreyalik tomoshabinlar orasida mashhur. O'zbek milliy oshxonasi Koreyada juda yaxshi qabul qilinadi. Ko'plab o'zbek restoranlari Koreyaning yirik shaharlarida faoliyat yuritadi, bu joylarda palov, somsa, manti va boshqa milliy taomlarni tatib ko'rish mumkin. Koreyaliklar ayniqsa o'zbek palovining o'ziga xos ta'miga qiziqish bildirishadi.

Koreyada mehnat migratsiyasi sabab ko'plab o'zbekistonliklar yashab kelmoqda. Ushbu diasporaning faoliyati ham O'zbekiston madaniyatini targ'ib qilishda katta ahamiyatga ega. Koreyada yashovchi o'zbekistonliklar milliy bayramlar, masalan, Navro'z, Mustaqillik kuni va O'zbek tili bayrami kunini keng nishonlaydilar. Janubiy Koreyada O'zbekiston madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda. Ushbu markazlar; O'zbek tilini



o'rgatish kurslarini tashkil etadi. Madaniy tadbirlar va ko'rgazmalar o'tkazadi. Milliy liboslar va xalq amaliy san'ati namoyishini amalga oshiradi.

Xulosa

O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi madaniy va ta'lim sohasidagi hamkorlik 1992-yildan boshlab doimiy ravishda kengayib, chuqurlashib bormoqda. Har ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik do'stlik, o'zaro hurmat va manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan. Madaniyat sohasida ikki mamlakat xalqlari o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatilib, xalqaro festivallar, madaniyat kunlari va san'at tadbirlari orqali o'zaro boy madaniy merosni tanishtirishga katta hissa qo'shildi. Koreyada tashkil etilgan O'zbekiston madaniyat markazlari va O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan koreys madaniyati markazlari ikki tomonlama almashinuvni yanada mustahkamladi. O'zbek xalqining milliy urf-odatlarini, musiqa va raqslari, shuningdek, koreys madaniyatining boy merosi ikki davlat xalqlari uchun madaniy boylik sifatida xizmat qildi.

Ta'lim sohasida esa qo'shma universitetlar, ilmiy tadqiqot loyihalari, talaba va o'qituvchilar almashinuvi dasturlari o'z samarasini bermoqda. Janubiy Koreyaning nufuzli stipendiya dasturlari, jumladan, GKS va KOICA grantlari o'zbek yoshlariga xalqaro miqyosda bilim olish imkonini berdi. Shuningdek, raqamli ta'limni rivojlantirishga qaratilgan "Smart Education" loyihasi zamonaviy o'quv texnologiyalarini joriy etish orqali O'zbekistondagi ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Madaniyat va ta'lim sohasidagi bu mustahkam hamkorlik nafaqat davlatlararo munosabatlarni rivojlantirishda, balki xalqlar o'rtasidagi do'stlik va tushunishni mustahkamlashda ham muhim o'rin tutmoqda. Ushbu hamkorlik loyihalari ikki davlatning yanada yaqinlashishiga, uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Saidov S. S. O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi madaniy aloqalar tarixi. – Toshkent: Sharq Nashriyoti, 2021. – B. 78–82.
2. Kim D. Janubiy Koreya ta’lim tizimi: innovatsion yondashuvlar. // Ilm va taraqqiyot, 2019. – №3. – B. 25–30.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Janubiy Koreya bilan hamkorlik to‘g‘risidagi qarori. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy matbuot markazi, 2020.
4. Global Korea Scholarship (GKS) dasturi. // Koreya Respublikasi Ta’lim vazirligi hisobotlari, 2023. – Seul.
5. O‘zbekiston va Janubiy Koreya strategik hamkorligi. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2022. – B. 12–15.
6. Kim S., Park J. Koreya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi madaniy aloqalar. – Seul: Hanyang University Press, 2018.
7. KOICA xalqaro hamkorlik agentligi ma’lumotlari. // KOICA rasmiy veb-sayti, 2023.
8. Нурметова Фазилат. Жамият инновациялар-Общество и инновации-Society and innovations. Special Issue – 7 (2021) / ISSN 2181-1415, <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss7/S-2021>, 171 bet